

Antti Karttunen: Markaziy Osiyo o'tkir muammolar qarshisida sezilarli barqarorlikni namoyish etmoqda



Ushbu fikrni Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT) loyihalari koordinatori Antti Karttunen VIII Markaziy Osiyo ekspertlar forumida bildirdi.

- Ko'p tomonlama hamkorlik masalalarini muhokama qilish uchun izchil tizimli ekspertlar muloqot maydonlari juda zarur. Bugungi forum kooperatsiyani rivojlantirish bo'yicha umumiy qarashlar va amaliy qadamlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi, - dedi diplomat.

YeXHT vakili Markaziy Osiyo davlatlarining yuqori darajadagi konsolidatsiyasiga yuksak baho berib, so'nggi vaqtarda mintaga iqtisodiy inqiroz, iqlim o'zgarishi, texnologik transformatsiya kabi o'tkir muammolar qarshisida sezilarli barqarorlikni namoyish etayotganini ta'kidladi.

Uning so'zlariga ko'ra, bunday sharoitda umummintaqaviy muammolarni hal etish uchun Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. - Mintaqa kelajagi bugun qilingan tanlov va ushbu tanloving mushtaraklik darajasi bilan belgilanadi, - dedi u.

Shu o'rinda ekspert Markaziy Osiyo uchun har tomonlama xavfsizlik – harbiy-siyosiy, iqtisodiy-ekologik va inson omilini qamrab oluvchi konsepsiyanı ishlab chiqish g'oyat muhimligini alohida ta'kidladi. Shu bilan birga, Antti Karttunen davlatlarning mintaqaviy kun tartibidagi barcha masalalar bo'yicha sa'y-harakatlarining mushtarakligi arxitekturani mustahkamlashda muhim rol o'ynashiga ishonch bildirdi.